

**YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARIDA LIBERAL
G‘OYALARNING AHAMIYATI****Shodmonqulova Muborak Maxamatqulovna***Guliston davlat universiteti dotsenti**Email: muborakshodmonqulova@gmail.com**Tel: +998 99 826 91 61*

Annotation: *The article highlights the importance of liberal ideas in the reforms being implemented in the new Uzbekistan, and highlights the correlation between liberalism and the new ideas being put forward by our President today.*

Keywords: *Liberal, renaissance, reform, individual, bourgeois, management, democratic, philosopher, sociologist, politics.*

Аннотация: *В статье подчеркивается важность либеральных идей в реформах, проводимых в новом Узбекистане, и указывается взаимосвязь между либерализмом и новыми идеями, выдвигаемыми сегодня нашим Президентом.*

Ключевые слова: *Либеральный, ренессансный, реформаторский, индивидуальный, буржуазный, управленческий, демократический, философ, социолог, политика.*

Annotatsiya: *Maqolada yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda liberal g‘oyalarning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan yangi g‘oyalar bilan liberalizmning o‘zaro mutanosibliги yoritib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Liberal, renessans, islohot, individ, burjuaziya, boshqaruv, demokratik, faylasuf, sotsiolog, siyosat.*

Inosniyat taraqqiyotidan ma’lumki, liberalizm turli ijtimoiy-tarixiy va milliy madaniy sharoitlarda shakllandi, rivojlandi va qaror topdi. Shuning bilan birga liberalizm turli ko‘rinishlarda, ya’ni g‘oya, dunyoqarash shakllarida, siyosiy, iqtisodiy mafkura va siyosiy falsafa sifatida ham rivojlandi. O‘z navbatida u konkret siyosiy tuzumlarda liberal amaliyot turlari va liberalizmning tarixiy an‘analari tarzida ham farqlanadi.

Mustaqil O‘zbekiston dunyo hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda demokratik jarayonlarni takomillashtirib, inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlab, yangilanayotgan jamiyat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lib kelayotgan ekan, bu bevosita davlatimizning olib borayotgan liberal siyosatidandir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”[1]. Biz demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, faqat oldinga –

yangi, yuksak marralar sari boramiz”. Albatta, xalqimizga xos bo‘lgan ulug‘ niyat – bu bevosita erkinlik va farovonlikka yo‘g‘rilgan hayot tarzidirki, bu xislatlar demokratik tafakkur bilan chambarchas bog‘liq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga kuch bag‘ishlaydigan, uning rivojlanishiga keng shart-sharoitlar yaratadigan demokratik prinsip – “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”[2] degan g‘oyani ilgari surdi. Bu g‘oya fuqarolik jamiyatni qurishning asosiy kuch-quvvati manbai sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da liberal g‘oyalarning ustuvor mohiyat kasb etganligi erkin, demokratik jamiyat qurish dasturi sifatida quyidagi vazifalar ilgari surildi: “davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish”[3], kabi konseptual yo‘nalishlar mamlakatimizda liberal g‘oyalarning tantanasi sifatida e‘tiborni tortadi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar Strategiyasi”da belgilab berilgan dolzarb masalalarga e‘tibor qaratgan holda mamlakat rahbariyatining asosiy maqsadi respublikadagi barcha millatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda siyosat yuritish ekanligini idrok etish qiyin emas. Taraqqiyot modeli tayyor holda ko‘pdan tushib qolmaydi. Uning zamiridagi ayrim tamoyil, nazariy faraz va taxminlarga amaliyot, taraqqiyotning o‘zi ham “tahrir” kiritib borishi tabiiy. Shu tariqa amaliy chora-tadbirlar, karakterlantiruvchi mexanizmlar muntazam o‘zgarib, takomillashib, boyib boradi. Bir so‘z bilan aytganda, taraqqiyot modeli qotib qolgan andoza emas, u bosqichma-bosqich shakllanadi, asta-sekinlik bilan takomillashadi va oxir-oqibat mukammal tizimga aylanadi. Shunga mos ravishda uning yaratuvchanlik kuchi ham o‘sib boraveradi. “Shuni alohida ta’kidlash kerakki, liberallashtirish mumtoz hokimiyatni haddan tashqari ta’siridan ozod bo‘lish jarayonini va jamiyat hayotini demokratlashtirishga qaratilgan falsafiy va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar tizimiga asoslanadi”.

O‘zbekistonda islohotlarning dastlabki bosqichidanoq yurtimizning o‘ziga xos tarixi, geostrategik o‘rin, tabiiy-ma’daniy zaxiralari, xalqimizning boy ilmiy, falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligiga tayangan holda demokratiya tamoyillari izchil joriy etilmoqda.

So‘nggi yillarda qadriyatlar erkinligini liberalizmning bosh g‘oyasiga aylantirishga harakat qilgan kuchlar, uning mohiyatini global darajada targ‘ib qilishda ko‘rmoqdalar.

Ijtimoiy xayotni liberallasuvi esa g'arbona fikrlash, dunyoqarash va madaniyatni qabul qilinishi pirovardida asosiy maqsad bo'lib qolmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo'nalishi – erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni yangi pog'onaga ko'tarish borasidagi vazifalar, bevosita Harakatlar strategiyasining birinchi yo'nalishi doirasida – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida o'tgan besh yil davomida amalga oshirilgan ishlarning uzviy davomi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo'nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotimizga tatbiq etilishi orqali millati, tili va dinidan qat'i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan “Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilib, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil to'laqonli ro'yobga chiqariladi [4;13-40].

Mamlakatda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun so'z va matbuot erkinligini, fuqarolarning axborot olish hamda uni tarqatish, o'z fikru qarashlarini erkin bildirish huquqini ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar hayotga keng joriy etiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ushbu yo'nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, jamiyat va davlat boshqaruvining har bir nuqtasida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash va davlat idoralari, tom ma'noda, xalqqa xizmat qiladigan maskanga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “Biz Yangi O'zbekistonni mard va olijanob xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor niyatni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yondashuv kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi davlatni barpo etishdek, buyuk xalq harakati tobora kengaymoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharafdir”¹.

Hozirgi liberalizm g'oyalari muqobil g'oyalarni e'tirof etish, xalqaro munosabatlarda siyosiy plyuralizm tamoyillariga amal qilish, saylov tizimini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, turli shakldagi hokimiyat tarmoqlari faoliyati mustaqilligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlari ishining fuqarolar tomonidan nazorat qilinishiga erishish kabi maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish davrida oldimizda turgan bir qator vazifalarni izchil amalga oshirilishida liberalizm o'zining ijobiy,

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti., 2023. –B. 19-20.

hayotiy mazmunini namoyon qilishi hech kimga sir emas. Chunki g'oyalar erkinligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot erkinligining asosidir.

Aytish mumkinki, liberalizm inson hayotining zaruriy sharti. Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning demokratik muqobilliklariga nisbatan tizimiy-tashkiliy boshlanish, inson erkinligi, ongi va uning butun borligi universal bo'lganidek liberalizm ham universal hodisadir. U dunyoning har bir nuqtasida siyosiy jaholat va o'rta asrchilikka karshi kurashda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2019. – 403 б.
2. “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan vaqt keldi”. <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/22/islohotlar/.12.03.2026>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. F-4849-son. 14.02.2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. - 440 b.
5. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent:, “O'zbekiston”, 2023. – 408 b.
6. Sh.M.Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent:, “Ogahiy” nashriyoti, 2024. - 512 b.